VATAN VA QONUN himoyasida –



Hozirgi dunyoda prokuratura ikki asosiy shaklda faoliyat ko‘rsatadi: birinchisi – jinoiy-huquqiy ta’qibni amalga oshiruvchi organ, ikkinchisi esa – qonuniylikni nazorat qiluvchi organ.

Birinchi shakl roman-german huquq oilasiga mansub davlatlarda mavjud bo‘lib, Germaniya, Fransiya, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda prokuratura jinoiy ayblovni quvvatlash, jinoyatlarni tergov qilish va shaxslarni ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlashning qonuniyligini nazorat qilish vazifalarini bajaradi.

Ikkinchi shaklda prokuratura organlari qonuniylikni nazorat qilishdan tashqari, boshqa ko‘plab vazifalarni ham amalga oshiradi. Bu organlar Vengriya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Rossiya, Tojikiston va Lotin Amerikasi davlatlarida mavjud[1].

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, 1991-yilda mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda tub islohotlar boshlandi. Ushbu islohotlarning bir qismi sifatida, O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasining huquqiy asoslarini ishlab chiqish va qabul qilish zaruriyati paydo bo‘ldi. Buning natijasida 1992-yilda O‘zbekiston Prezidentining farmoni bilan prokuratura organlari tashkil etildi[2].

Ta’kidlash lozim, O‘zbekiston Prezidenti tomonidan 1992-yil 28-fevralda “Harbiy tribunallar va harbiy prokuratura organlari to‘g‘risida”gi farmon imzolangan[3]. Bu yil O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi organlari tashkil etilganiga 33 yil to‘ladi.

Ushbu farmon bilan sobiq Turkiston harbiy okrugi harbiy tribunali negizida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy sudi tashkil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy prokuratura organlari O‘zbekiston Respublikasi prokuroriga bo‘ysundirilib, sobiq Turkiston harbiy okrug harbiy prokuraturasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy prokuraturasi tashkil etilgan.

Bu organlar respublika hududidagi barcha harbiy qismlar, birlashmalar, strategik qo‘shilmalar, harbiy tuzilmalar, harbiy o‘quv yurtlari, muassasalar va boshqa harbiy tuzilmalarda prokuror nazoratini amalga oshirishni o‘z zimmasiga oldi.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi harbiy sudlar va harbiy prokuratura organlarini zarur mablag‘ bilan ta’minladi, harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi va barcha turdagi ta’minoti saqlab qolindi.

Farmon imzolangan kundan kuchga kirishi belgilangan.

Farmonga muvofiq O‘zbekiston Qurolli kuchlari harbiy prokuraturasi tizimida 10 ta garnizon – Qarshi, Termiz, Buxoro, Navoiy, Jizzax,

[1] Ватан ва қонун ҳимоясида. Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси. Тамаддун. Тошкент-2024. 60-б
[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 8 январь кунги “Ўзбекистон Республикаси прокуратураси органлари тўғрисида”ги 313-фармони. З.С.Ибрагимов. Мустақиллик ва Ўзбекистон Республикаси прокуратураси. Тошкент-2011. 299-б.
[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 28 февралдаги “Ҳарбий трибуналлар ва ҳарбий прокуратура органлари тўғрисида”ги 355-фармони.

Toshkent, Chirchiq, Samarqand, Farg‘ona va Andijon garnizoni harbiy prokuraturalari tashkil topdi.

Bu davrda respublika hududida joylashgan harbiy prokuratura organlarida xizmat qilgan prokuror-tergov lavozimlaridagi ofitserlar va texnik xodimlar tarkibida mahalliy kadrlar juda oz bo‘lgan. Harbiy prokuraturada ish faqat rus tilida yuritilgan. Farmon qabul qilinguncha biron-bir mahalliy kadr harbiy prokuror lavozimiga tayinlanmagan. Ajablanarli tomoni shundaki, O‘zbekiston poytaxti Toshkentda joylashgan sobiq Turkiston harbiy okrugi harbiy prokuraturasi O‘zbekiston Respublikasi prokuroriga emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri SSSR Bosh prokuroriga bo‘ysungan va unga hisobdor bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasini dunyo hamjamiyati mustaqil davlat sifatida tan olguniga qadar mamlakatimizda faoliyat olib borgan harbiy prokuratura organlarida asosan Rossiyadan yuborilgan harbiy yuristlar xizmat qilgan. 1992-yil 28-fevraldagi farmon qabul qilingach tizimda xizmat qilgan mahalliy bo‘lmagan ofitser kadrlar o‘z xohishlariga ko‘ra harbiy xizmatdan bo‘shab, o‘z yurtlariga keta boshladi.

Shu paytda armiyada tartib-intizomni saqlashda jiddiy muammolar paydo bo‘ldi. Harbiy xizmatchilarning o‘zboshimchalik bilan armiyadan ketishi, dezertirlik, o‘zaro nizolar va boshqa harbiy jinoyatlar soni keskin oshdi.

O‘zbekiston Respublikasi harbiy prokuraturasining ofitser kadrlarini to‘ldirish masalasi esa o‘z vaqtida ijobiy yechimga ega bo‘ldi. 1993-yil 8-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi harbiy prokuraturalari va harbiy sudlarining zobit kadrlar tarkibini to‘ldirish to‘g‘risida”gi 66-qarori qabul qilindi[4].

Vazirlar Mahkamasining ushbu qarorida harbiy prokuraturalar va harbiy sudlarni tajribali va malakali kadrlar bilan to‘ldirish maqsadida oliy yuridik ma’lumotga ega va zaxiradagi zobitlar bo‘lgan yoki zaxiradagi zobit unvoniga ega bo‘lmagan yurist fuqarolarni harbiy xizmatga chaqirish, ularning oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlaridagi ta’lim, Milliy xavfsizlik xizmati va ichki ishlar organlaridagi xizmatlari, shuningdek, sud organlari,

Harbiy prokuraturaning shtat tuzilmasi va ta’minoti, xodimlarning harbiy xizmatchi maqomi va barcha imtiyozlari saqlanib, Mudofaa vazirligidan Bosh prokuraturaga o‘tkazildi.









[4] https://lex.uz/ru/docs/560847.

Hozir O‘zbekiston Respublikasining Harbiy prokuraturasi markaziy mahkamasi Toshkent shahrida joylashgan bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlar markazlarida jami 14 ta hududiy harbiy prokuratura faoliyat ko‘rsatmoqda.

prokuratura, adliya, davlat va boshqa organlardagi ish davri harbiy xizmat muddatiga qo‘shib hisoblanishi belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziriga O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, adliya vaziri va Oliy sud raisi bilan kelishgan holda, harbiy prokuraturalar va harbiy sudlar uchun haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladigan shaxslarga navbatdagi harbiy unvondan bir pog‘ona yuqori, rahbar lavozimlarga tayinlanadiganlarga esa shtatda nazarda tutilganidan kamida ikki pog‘ona yuqori harbiy unvon berish topshirildi.

Mudofaa vaziriga “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunning 22-moddasi 2-bandiga asosan yuqori kasb malakasiga, ish tajribasiga ega bo‘lgan, belgilangan yoshdan katta yoshdagi, lekin qonunda belgilanganidan 5 yoshdan ortiq katta bo‘lmagan fuqarolarni harbiy prokuratura organlari va harbiy sudlarga haqiqiy harbiy xizmatga chaqirish masalasini hal qilishga ruxsat berildi. Mazkur qarorning 2 va 3-bandlari harbiy prokuratura organlari va harbiy sudlarni kadrlar bilan to‘ldirish davrida, ya’ni 1993-yil 1-dekabrgacha amal qilishi belgilandi.

Qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, adliya vaziri, Oliy sud raisi va Mudofaa vaziri zimmasiga yuklatildi. O‘tgan vaqt mobaynida harbiy prokuratura organlari to‘liq mahalliy ofitser kadrlar bilan ta’minlandi.

Harbiy tizimdagi islohotlarga muvofiq respublika miqyosida tashkil etilgan yangi harbiy tuzilmalar bilan hamkorlikni oshirish maqsadida 1999-yil 30-mart kuni O‘zbekiston Prezidenti tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining Harbiy prokuraturasini tashkil qilish to‘g‘risida”gi farmon imzolandi[5]. Bu farmon harbiy prokuratura faoliyatini takomillashtirishda muhim rol o‘ynadi.

Mazkur farmonda O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat chegaralarini himoya qilish qo‘mitasi, Ichki ishlar vazirligining ichki va qorovul qo‘shinlari bosh boshqarmalari hamda Mudofaa vazirligining harbiy okruglari tashkil etilgani munosabati bilan harbiy prokuratura organlari va vazirliklarning harbiylashtirilgan bo‘linmalarida qonunchilikka rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining samaradorligini ta’minlash uchun O‘zbekiston Respublikasining Qurolli kuchlari harbiy prokuraturasi negizida o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Harbiy prokuratura faoliyatini mukammallashtirish uchun mavjud lavozimlar soni va mehnat fondi doirasida O‘zbekiston Respublikasining Harbiy prokuraturasi tashkil etildi. Uning tarkibida harbiy okruglarning to‘rtta harbiy prokuraturasi tuzilishi, O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi rahbariyati tarkibiga Bosh prokurorning o‘rinbosari – O‘zbekiston Harbiy prokurori lavozimi kiritildi.

Farmonga ko‘ra Mudofaa vazirligiga Harbiy prokuratura va uning tarkibiy bo‘linmalarini moliyaviy va moddiy-texnik jihatdan ta’minlash vazifasi yuklatilgan. Shuningdek, shaxsiy tarkibning harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi, pul va boshqa ta’minot turlari saqlab qolinishi ta’kidlangan.

Farmonga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukus shahrida Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug harbiy prokuraturasi, Qarshi shahrida Janubi-g‘arbiy alohida harbiy okrug harbiy prokuraturasi, Farg‘ona shahrida Sharqiy harbiy okrug harbiy prokuraturasi va Jizzax shahrida Markaziy harbiy okrug harbiy prokuraturasi tashkil etilgan. Bu tuzilmalar mamlakatning ma’muriy-hududiy tuzilishiga mos ravishda 10 ta hududiy harbiy prokuraturaning faoliyatini ta’minlagan.

2000-yilning 17-yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyrug‘i bilan Namangan shahrida Namagan harbiy prokuraturasi tashkil etilgan. Shuningdek, 2001-yil 25-yanvarda Bosh prokurorning 42-buyrug‘iga asosan Toshkent harbiy prokuraturasi asosida Toshkent harbiy okrug harbiy prokuraturasi tashkil etildi.

[5] https://lex.uz/docs/213387.

2016-yil 8-avgustdagi farmonga koʻra Qarshi harbiy prokuraturasi, Markaziy harbiy okrug harbiy prokuraturasi va Fargʻona harbiy prokuraturasi tugatilib, ularning oʻrniga Urganch va Guliston shaharlarida yangi harbiy prokuraturalar tashkil etildi. Mudofaa vazirining 2017-yil 16-maydagi direktivasiga muvofiq Janubi-gʻarbiy alohida harbiy okrug harbiy prokuraturasi asosida Qarshi harbiy prokuraturasi, Toshkent harbiy okrug harbiy prokuraturasi asosida Toshkent harbiy prokuraturasi, Sharqiy harbiy okrug harbiy prokuraturasi asosida Fargʻona harbiy prokuraturasi va Shimoli-gʻarbiy harbiy okrug harbiy prokuraturasi asosida Nukus harbiy prokuraturasi tashkil etildi.

Hozir Oʻzbekiston Respublikasining Harbiy prokuraturasi markaziy mahkamasi Toshkent shahrida joylashgan boʻlib, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlar markazlarida jami 14 ta hududiy harbiy prokuratura faoliyat koʻrsatmoqda.

2022-yil 23-dekabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tizimida qonuniylikni taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 272-farmon imzolandi[6].

Ushbu farmon Harbiy prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlashda muhim qadam boʻldi. Oʻzbekiston Prezidentining 1999-yil 30-martda qabul qilingan “Oʻzbekiston Respublikasining Harbiy prokuraturasini tashkil qilish toʻgʻrisida”gi farmonidan soʻng 23 yil davomida prokuratura organlarining harbiy tuzilmasi, ya’ni Harbiy prokuratura faoliyatini takomillashtirishga oid biron-bir farmon yoki hukumat qarori qabul qilinmagan edi.

Tarixda ilk bor “Oʻzbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi toʻgʻrisida”gi nizom Prezident farmoni bilan tasdiqlandi. Buning natijasida Harbiy prokuratura organlarida tub islohotlar davri boshlandi. Farmonga muvofiq Harbiy prokuratura Oʻzbekiston Respublikasi prokuratura organlarining Qurolli Kuchlar tizimida mamlakatning mudofaa salohiyatini oshirish, suverenitetini himoya qilish, xavfsizlik va hududiy yaxlitlikni taʼminlashga oid qonunchilik hujjatlariga soʻzsiz rioya etilishini taʼminlaydigan alohida tuzilma sifatida tashkil etildi. Ushbu organ korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning, shu jumladan budjet mablagʻlari va davlat mulkini talon-toroj qilishning oldini olishga yoʻnaltirilgan.

Shu asosda Harbiy prokuraturaning shtat tuzilmasi va taʼminoti, xodimlarning harbiy xizmatchi maqomi va barcha imtiyozlari saqlanib, Mudofaa vazirligidan Bosh prokuraturaga oʻtkazildi. Qurolli kuchlarda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini hamda qonuniylikni taʼminlash asosiy mezon qilib belgilandi. Buning natijasida harbiy xizmatchilar hamda xodimlarning huquqlariga rioya etilishiga alohida eʼtibor qaratildi.

Shunday ekan, Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tizimida qonunlarning aniq va bir xil bajarilishini taʼminlash uchun Harbiy prokuratura faoliyatining huquqiy asoslari mustahkam boʻlishi shart. Shu bois kelgusida bu yoʻnalishda izlanishlar olib borish, chuqur tahlillar oʻtkazish va ilgʻor xorijiy tajribalarni oʻrganish muhim ahamiyatga ega.

Bahodir XUDOYBERDIYEV,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

[6] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 23 декабрь кунги “Ўзбекистон Республикаси Қуролли кучлари тизимида қонунийликни таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 272-фармони.